

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

FIZIKA-MATEMATIKA FAKULTETI

“INFOMATIKA O‘QITISH METODIKASI” KAFEDRASI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: Matematika fanini ba’zi mavzularni o‘qitishda differensial ta’lim texnologiyasining o‘rni

Bajardi: 4 kurs “D” guruh talabasi

Maxmudov Alisher

Ilmiy rahbar: f.-m.f.n. Yodgorov G‘.R.

NAVOIY-2015

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. TA'LIM TIZIMIDA DIFFERENSIAL TA'LIM TEXNOLOGIYASI	5
1.1. O'QUV JARAYONIDA TA'LIM BERUVCHI VA TA'LIM OLUVCHI.....	5
1.2. DIFFERENSIAL TA'LIM TEXNOLOGIYASI.....	8
II BOB. ALGEBRA FANI DARS MASHG'ULOTLARINI DIFFERENSIAL TA'LIM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA TASHKIL ETISH.....	10
II.2. “ $y = ax^2 + bx + c$ FUNKSIYA” MAVZUSINI DIFFERENSIAL TA'LIM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA TASHKIL ETISH	ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.
II.3. “KVADRAT FUNKSIYANING GRAFIGINI YASASH” MAVZUSINI DIFFERENSIAL TA'LIM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA TASHKIL ETISH.	ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.
X U L O S A	13
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	14

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi va u bugun o'z natijasini bermoqda. Maqsadni amalga oshirish yo'lida "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning qabul qilinishi bilan uzluksiz ta'lim tizimi orqali zamonaviy kadrlar tayyorlashning asosi yaratildi[7].

Uzluksizlik va uzviylik ta'lim tizimida jamiyatning ma'naviy va intellektual salohiyatini kengaytiradi, qolaversa, davlatning ijtimoiy va ilmiy – texnik taraqqiyotini takomillashtirish omili sifatida ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Bugun pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi va ularning o'quv jarayoniga kirib kelishi, shuningdek, axborot texnologiyalarining jadal almashinuvi va takomillashuvi jarayonida har bir kishi o'z kasbiy mahoratini oshirish imkoniyati yaratiladi.

Respublikamizdagi uzluksiz ta'lim har tamonlama asosli ta'lim berish, kadrlar tayyorlashning turli shakl, usul, vosita, uslub va yo'nalishlarining mukammal uyg'unligidan iboratdir. Uning sifati muayyan usullar va uslublarning ta'lim jarayonida oqilona tatbiq etilishini ta'minlaydi.

Bugun ta'lim jarayoniga quyidagi talabalar quyilmoqda: *sifat; ommaviy, samaradorlik*. Zamonaviy axborot texnologiyalari va telekommunikatsiya vositalaridan o'quv jarayonida foydalanish orqali ta'lim berishning sifati va samaradorligini oshiradi, o'rgatuvchi va o'rganuvchiga qulaylik yaratadi.

Axborot telekommunikatsiya vositalari orqali ta'limni tashkil etish, boshqarish, nazorat qilishning yangi – sifat bosqichiga o'tildi. O'qituvchi va o'quvchi munosabatidagi bog'lanish aloqalar tubdan o'zgaradi, ta'lim mazmuniga pedagogik ishlov berish texnologiyasi yangilanadi, mashg'ulotlarga uchun tayyorlangan o'quv materiallarining to'liq o'zgarishiga, teskari aloqa mohiyati jihatidan yangilanadi, ta'limga qushimcha va o'zgarish kiritish zarur hollarda uni takrorlash imkoniyatlari oshadi.

Matematika fanining o'quv mashg'ulotlarga yangicha yondashuv orqali uni tashkil etish, o'quvchilardagi bilim va ko'nikmalarni, ularning fikrlash qobiliyatini, hozir javoblilik darajasini o'sishiga sababchi bo'lmoqda. Shuni ta'kidlash lozimki, o'qituvchi tomonidan rejalashtirilgan maqsadga, kafolatli natija erishish koeffetsenti oshadi. O'qituvchi o'quv mashg'ulotlarni tashkil etishda uni olib borishda, asosan texnologik xaritani auditoriya holatidan, undagi o'quv va texnik vositalarning barqarorligidan kelib chiqib rejalashtirishi va tuzishi lozim, o'quvchilarning bilim darajasini oshirish ulardagi bilim, malaka va ko'nikmani yuqori darajaga olib chiqish esa differensial ta'lim texnologiyasidan o'quv jarayonida foydalanishni talab qilmoqda.

Ushbu bitiruv malakaviy ishidan ko'zlangan asosiy maqsad, yuqoridagi fikr va mulohazalarni tasdiqlash barobarida matematika fanini o'quvchilarga mukammal o'rgatishdan hamda ulardagi bilim, ko'nikma va malakani zamon talablari darajasida rivojlantirishdan iborat.

Ushbu bitiruv malakaviy ishda umumiy o'rta ta'lim maktablarida tahsil olayotgan 9-sinf o'quvchilarga algebra fani dars mashg'ulotlarini differensial ta'lim texnologiyasi asosida tashkil etish usullarini o'zida mujassamlashtirgan.

Ushbu bitiruv malakaviy ish kirish, 2 ta bobdan, xulosa, ilova va foydalanigan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Bitiruv malakaviy ishda o'qituvchi tomonidan dars jarayonini differensial ta'lim texnologiyasi asosida tashkil etish uchun muayyan bir mavzu bo'yicha uch xil darajadagi, ya'ni **A**-reproduktiv, **B**-izlanish, **C**-ijodiy xarakterdagi o'quv topshiriqlarini tuzadi. Bu topshiriqlarda ikkita yo'nalish nazarda tutiladi: o'quvchilarning muayyan darajadagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashi, bilim egallashdagi mustaqilligini ta'minlash. O'qitucvhi **A**, **B**, **C** variantdagi topshiriqlarni tuzishda izchillikka amal qilishi kerakligi yoritib berilgan.

I bob. TA'LIM TIZIMIDA DIFFERENSIAL TA'LIM TEXNOLOGIYASI

1.1. O'quv jarayonida ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi

Bugun o'qituvchi o'zda qanday sifatlarni mujassamlashtirishi va ta'lim berish jarayonidan nimalarni o'zlashtirgan bo'lishi lozimligi har doim muhim hisoblanadi. Ta'lim oluvchi shaxsini shakllantirishda bu sifatlarning qanchalik darajada muhim o'rin egallaydi degan odilona mushohadali savolga har bir ta'limga mas'ul shaxs javob berishi kerak. Ta'lim jarayoni DTS bo'yicha bilim olish, ko'nikma va malakalarni egallash, ilmiy dunyoqarash, ma'naviy-axloqiy fazilatlar, ijodiy izlanishlarni rivojlantirish maqsadiga yo'g'rilgan ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning o'zaro hamkorligi sanaladi.

Ta'lim berish jarayonida samimiy, ochiq chehrali, ta'lim oluvchilarni qanday bo'lsa shundayligicha qabul qiladigan va yaxshi ko'radigan, qalb qo'rini ta'lim oluvchi o'quvchilarga birdek bera oladigan o'qituvchining qiyofasi har bir o'quvchi ko'z oldida gavdalanishi lozim. O'qituvchi har bir guruhda do'stona muhitni yaratishi va ta'lim oluvchi o'quvchilarning o'quv motivlarini rivojlantiruvchi kuch-rag'batlantirish metodlari ekanini anglash, o'quvchilarning taqdiri, baxti va kelajagi uchun mas'ulligini chuqur his etishi, ta'lim oluvchi o'quvchilarning nafosaniyati va qadr-qimmatini e'zozlash **kerak.**

O'qituvchi har qanday pedagogik vaziyatda o'quvchilarga o'z pedagoglik san'atini yuksak darajada namayon qilishi va barcha vaziyatlardan o'z qobiliyatiga ishonib harakat qilmog'i zarur. O'qituvchi o'quvchilarni tushuna olishi, his-tuyg'ularini qadrlashi, biologik va psixologik rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlar, qiziqishlar, ehtiyojlarni bilishi va shunga qarab kasbga yo'naltirishi zarur.

O'qituvchi o'z faoliyati davomida har doim yangilikka intilishi, o'zi tashkil etgan va boshqarayotgan jarayon orqali ko'zlangan maqsadga erishishi va barkamol shaxsning shakllanishiga imkon yaratayotganiga ishonch hosil qilishi kerak. Dars jarayonida yuzaga kelgan pedagogik bilan hamkorligi, balki o'quvchilar o'rtasida do'stona va qulay ishtimoiy psixologik muhitning yaratilishi ham muhim o'rin tutadi. Bunday muhitning yaratilishi o'quvchilarni bilim

egallashda uchraydigan qiyinchiliklarni yengishga undab ular o'rtasida ham jihatlikni yuzaga keltiradi, o'quv-bilish faoliyatini tashkil etishdagi qiyinchiliklarni zudlik bilan bartaraf etish mazkur faoliyatni samarali tashkil etish usullarini bilish va ularni takomillashtirish, boyitishga intilishni paydo qilib bunda o'qituvchi va o'rtoqlarning rag'bat va yuqori darajadagi muloqat madaniyati o'quv mativlarini rivojlantirishda harakatlantiruvchi kuchga aylanadi. Bilim egallashga qiziqish va ehtiyoj o'quv mehnat ko'nikmalarining shakllantirish ko'nikmalarini vujudga kelishiga imkon yaratadi.

Bugungi kunda ta'lim jarayoniga qo'yilgan davlat talablari va ijtimoiy talablar, shuningdek, ta'lim mazmunining yangilanishi nafaqat o'qitish metodlari, vositalari va shakllarini takomillashtirish, balki o'qituvchining kasbiy-pedagogik, shu jumladan, pedagogik-psixologik, ilmiy-nazariy, ilmiy-metodik tayyorgarlik darajasini ko'rib chiqishni ham taqozo etadi.

Davr talabiga mos va hos o'qituvchi shaxsiy sifatlardan tashqari g'oyaviy siyosiy, ma'naviy-axloqiy yetuk, ijtimoiy va ijodiy faol, ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarish, innovatsion va axborot texnologiyalarini qo'llash qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Ta'lim samaradorligini oshirishda o'quv jarayonining tashkilotchisi va boshqaruvchisi bo'lgan o'qituvchi faoliyati muhim hisoblanadi. O'qituvchining faoliyat yosh avlodning aqliy, axloqiy, ruhiy, jismoniy qobiliyatlarini uyg'un ravishda rivojlantirish maqsadida o'quv faoliyatini tashkil qilish va boshqarish sanaladi. Bizning fikrimizcha ushbu faoliyat quyidagi bosqichlardan iborat bo'lishi lozim:

- o'quv materialini tanlash, tizimga solish;
- o'quvchining o'quv materialini qabul qilishi, anglash va ongli o'zlashtirishi imkonini beradigan o'qitish vositalari, metodlari va shakllantirish tanlash;
- pedagogik jarayonni yaxlit holda, har bir o'quvchining o'qitish maqsadlariga muvofiq o'quv faoliyatini tashkil etish, o'qituvchilarning bilimlar tizimini o'zlashtirish usullarini egallashiga erishish;

- o‘zining va o‘quvchilarning mashg‘ulot davomidagi faoliyatini loyihalash;

- o‘quvchilarning bilish va ko‘nikmalarini o‘zlashtirish usullarini egallashga qaratilgan metodlarini belgilash;

- nazorat, o‘qitish natijalarini tahlil qilish va bilim oluvchilar shaxsini rivojlantirish bo‘yicha kelgusida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan tadbirlarni belgilash;

- o‘qitish jarayonining natijasiga muvofiq mazkur jarayonni tashkil etish va boshqarish yuzasidan tegishli o‘zgartirishlar kiritish.

O‘qituvchining ta’limni boshqarish vazifasi o‘qitish jarayoniga faqat tegishli o‘zgartirishlar kiritish bilan cheklanmaydi. Ushbu jarayonning sub’ekti bo‘lgan o‘quvchilar shaxsida axloqiy sifatlarning shakllanishi, ma’naviy yuksalishi ham nazarda tutiladi. Bunday faoliyatni boshqarish uchun o‘qituvchi, avvalo, faoliyat turlari, unga ta’sir etuvchi tashqi va ichki omillar, istiqboldagi maqsad va vazifalarni loyihalashi, olinadigan natijalarni faraz qilishi zarur. Ta’lim jarayonidagi pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish o‘zida falsafa, psixologiya va pedagogikaning azaliy g‘oyalarini mujassamlashtiradi. Demak, ushbu g‘oya diqqat markazida o‘z imkoniyatlarini maksimal darajada amaliyotda qo‘llaydigan, ijodiy va ijtimoiy faol, turli hayotiy vaziyatlarni anglab, tahlil qiladigan, mo‘ljalni ongli ravishda mustaqil, to‘g‘ri oladigan, zamonaviy fikrlaydigan, yuksak madaniyatiga ega shaxsni shakllantirish maqsadi turadi. Shunday ekan, bu g‘oyaning asosiy jihati har bir shaxsda mavjud ehtiyoj, qiziqish, iqtidor va imkoniyatlar asosida ijobiy fazilat va xislatlarni shakllantirish va rivojlantirish sanaladi.

I.2. Differensial ta'lim texnologiyasi

O'qituvchi pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish orqali hamkorlik, o'quvchilar shaxsini hurmat qilish orqali shaxsning bilim egallashi, ijod qilishi uchun muhit yaratiladi. Ta'lim berish jarayonida o'quvchi sub'ekt sanaladi va ikkinchi sub'ekt-o'qituvchi bilan hamkorlikda o'quv-tarbiyaviy vazifalarni hal etadi.

O'qituvchidagi insonparvarlik munosabati o'quvchilarga ijobiy muomalada bo'lishi, ulardagi ishonchning yuqoriligi, muloqot madaniyatining yuksakligi, ijobiy rag'batlantirishning ustunligi tufayli ta'lim jarayonidan ko'zlangan maqsadga erishish, o'quvchilar faoliyatida uchraydigan kamchiliklarga chidamli bo'lishi, ularni bartaraf etishning eng samarali yo'llarini qo'llashda namoyon bo'ladi. Demokratlashtirish ta'lim tizimidagi formalashuvni, yuzakilashuvni yo'qotib, pedagogik hamkorlikni yuzaga keltiradi.

Hamkorlik o'qituvchining pedagogik va o'quvchilarning bilish faoliyatini takomillashtirish, ularni ma'naviy, axloqiy, jismoniy va intellektual jihatdan rivojlantirish, bu jarayonni bir-biriga uyg'unlashtirish, faoliyatning natijasi va borishini hamjihatlikda tahlil qilish imkonini beradi.

Dars berish jarayonini demokratlashtirishning tub mohiyati o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etishda ularga tanlash imkoniyati berilishidir. O'qituvchi o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etishda ularning xohishiga ko'ra individual tarzda, juftlikda yoki kichik guruhlarda ish olib borishi lozim. Shuningdek, uy vazifalari ham hamma uchun yagona va majburiy bo'lmasdan, bir necha variantda tayyorlanib, o'quvchilar o'z xohishiga ko'ra tanlash imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Masalan, 1-variantda yangi mavzu yuzasidan o'quv materiali takrorlash, o'quv mashg'uloti yuzasidan savollarga javob topish, lozim bo'lganda ob'ektlarning rasmini chizish va izohlar berish;

2-variantda dars jarayoni uchun o'quv materiali mazmunidagi atama va tushunchalardan foydalanib krossvordlar tuzish, bilim va ko'nikmalarga tayangan holda qisqacha o'z fikrlarini bayon qilish;

3-variantda dars mashg'ulotining mazmunini kengroq yoritish maqsadida qo'shimcha adabiyotlardan foydalanib ishlanmalari tayyorlash.

O'quvchiga bunday shakldagi mustaqil ishlarning berilishi ularning o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda avval yengilroq, keyin esa murakkabroq variantni bajarishga o'tish, o'z kuchi va bilimini sinab ko'rish imkonini beradi.

O'quvchining har bir yutug'i o'z vaqtida rag'batlantirilib turilishi, kamchiliklarning qayd etilishi va ularni bartaraf qilish uchun yordam ko'rsatilishi o'z samarasini beradi. O'quvchilarning bilish faoliyati pedagogik texnologiya talablari asosida tashkil etilishi, o'quv topshiriqlarining didaktik maqsadlariga erishish uchun muayyan vaqt ajratilib shart-sharoit yaratilishi kerak. Guruh muvaffaqiyatiga hissa qo'shishga intilishning vujudga kelishi o'quvchilarni majburiy o'qishdan ozod qilib, mazkur faoliyatning mazmuni va dunyo qarashini o'zgartiradi.

Bugungi kunda ta'lim oladigan o'quvchi shaxsini rivojlantirish uchun motivi, qiziqishi, bilim darajasi va bilimlarni egalashga bo'lgan ehtiyojini e'tiborga olgan holda ta'lim jarayonida tabaqalashgan va individual yondashuv zarur.

Bugun didaktik adabiyotlarda o'quvchilarga tabaqalashtirilgan tarzda yondashish differensial yondashuv deb atalmoqda.

Ta'limni differensiallashtirish o'quvchilarni o'quv jarayoni uchun ahamiyatli xususiyatlariga ko'ra guruhlariga ajratib tashkil etiladigan o'qitish – o'rgatishning ma'lum bir shakli orqali namoyon bo'lib, ta'lim oluvchilarning har xil darajadagi guruhlarida maxsus o'qitish jarayoni tashkil etilishini ta'minlanadi .

Differensial ta'lim dars jarayoning muayyan qismi didaktik maqsadini amalga oshirishga imkon beradigan mazmun, vosita, metod va shakllar majmuasidir. Bu yerda tabaqalashtirish ustuvor jihat bo'lib, har bir shaxsning imkoniyatini va qobiliyatiga yarasha o'qitish, o'quvchilarni har xil guruhlarda ishlashga o'rgatishga e'tibor qaratiladi. Bugun o'qitishning barcha shakllarida tabaqalashtirish mavjud, shu bois, ushbu texnologiya ta'lim jarayoniga oson singib ketadi.

II bob. ALGEBRA FANI DARS MASHG‘ULOTLARINI DIFFERENSIAL TA’LIM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA TASHKIL ETISH

II.1. “ $y = ax^2$ funksiya” mavzusini differensial ta’lim texnologiyasi asosida tashkil etish

Umumiy o‘rta ta’lim maktabi 9-sinf o‘quvchilari uchun algebra fanidan dars mashg‘ulotlarini tashkil etishda differensial ta’lim texnologiyasi qulay usuldir. Bu ta’lim texnologiyasidan foydalanishda har bir auditoriyaning o‘zlashtirishi, tarkibi, bilim darajasiga qarab mavzuni A, B, C variantlarda qo‘llab ko‘rish imkoniyati mavjud.

Dars mashg‘uloti jarayonida o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarga ular xoxish istaklaridan kelib chiqqan holda ixtiyoriy bitta (A, B, C variantlarga mos) topshiriq bajarib ko‘rsatiladi, shundan so‘ng o‘quvchilarga bajarish uchun variant topshiriqlari beriladi. Bu variant topshiriqlari differensial ta’lim texnologiyasining mazmun mohiyatiga mos hamda auditoriyaning o‘zlashtirishi bo‘yicha o‘quvchining o‘zlari tomonidan tanlanadi va bajariladi. Shuningdek, talabalar o‘zlarining olgan bilimini mustaqil ravishda tekshirib ko‘rish maqsadida mavzular bo‘yicha test savollari tuziladi[7].


Bugungi kunda har bir fan nuqtai nazaridan kelib chiqib uni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, amaliyotda keng ommaviylashtirish, ma’lum bir dastur asosida fanning muhim qirralarini ochib berish zarur va muhimdir. O‘quvchilarni matematika faniga bo‘lgan qiziqishni oshirish, bilimli etuk shaxs sifatida tarbiyalashda hamda ularga bilim berishda dars mashg‘ulotini differensial ta’lim texnologiyasi asosida tashkil etish dolzarbdir.

Ushbu bobda biz “ $y = ax^2$ funksiya”, “ $y = ax^2 + bx + c$ funksiya” va “Kvadratik funksiyaning grafigini yasash” mavzularini differensial ta’lim texnologiyasi asosida tashkil etishni ko‘rib chiqamiz.

Umumiy o‘rta ta’lim maktabi 9-sinf o‘quvchilariga mo‘jallangan algebra fani darsligining I bobi “Kvadrat funksiya” deb nomlanadi. Ushbu bobning 3-§, 4-§ va 5-§ lari yuqoridagi so‘z boshda keltirilgan nomlar bilan atalgan. Biz darslikda keltirilgan asosiy tushunchalarni, misollarni va berilgan topshiriqlardan A-

reproduktiv va B-izlanish xarakterdagi o'quv topshiriqlarini tuzishga harakat qilamiz.

“ $y = ax^2$ funksiya” mavzusida “**1-masala.** $y = 2x^2$ funksiya grafigini yasang” deb keltirilgan. Bu funksiya grafigini yasashdan oldin biz oldingi mavzuga murojat qilamiz, ya'ni o'quvchilarni oldingi mavzu bo'yicha savollar berib bilim va ko'nikmalarni tekshirib ko'ramiz. $y = x^2$ funksiya grafigini hosil qilish bo'yicha bajarilgan amallarni ulardan bosqichma-bosqich so'rab boshlaymiz. Natijada $y = 2x^2$ funksiya qiymatlari uchun jadval tuzish va $y = 2x^2$ funksiya grafigi bilan $y = x^2$ funksiya grafigini hosil qilib, ularni taqqoslab xulosa qilish kerak.




1-rasm. $y = x^2$ va $y = 2x^2$ funksiya grafiklari.

$y = 2x^2$ funksiya grafigi $y = x^2$ funksiya grafigini Ox o'qidan Oy o'qi o'qi bo'yicha 2 marta cho'zish bilan hosil qilinishini o'quvchilar bilan birgalikda muhokama qilinadi.

$0 < a < 1$ bo'lganda $y = ax^2$ funksiya grafigi haqida ma'lumot beriladi. Masalan, $a = \frac{1}{2}$ bo'lsin, u holda $y = \frac{1}{2}x^2$ funksiya grafigi $y = x^2$ funksiya grafigini Ox o'qidan Oy o'qi o'qi bo'yicha 2 marta siqish bilan hosil qilinishini ham o'quvchilarga muhokama qilish uchun murojat qilib, ulardagi fikrlar eshitiladi hamda natijaviy to'g'ri javobni beramiz.

Bosqichma-bosqich $y = -x^2$ va $y = x^2$ funksiya grafiklarini taqqoslaymiz. Natijada bu funksiya grafiklari haqida quyidagi fakti keltirish mumkin: $y = -x^2$ funksiyaning grafigini $y = x^2$ funksiya grafigini Ox o'qiga nisbatan simmetrik ko'chirish bilan hosil qilinadi (2-rasm a.).



2-rasm. a) $y = -x^2$ va $y = x^2$ b) $y = -\frac{1}{2}x^2$ va $y = \frac{1}{2}x^2$ funksiylarning grafiklari

X U L O S A

Ta'lim jarayoni DTS bo'yicha bilim olish, ko'nikma va malakalarni egallash, ilmiy dunyoqarash, ma'naviy-axloqiy fazilatlar, ijodiy izlanishlarni rivojlantirish maqsadiga yo'g'rilgan o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi sanaladi.

O'qituvchi har doim yangilikka intilishi, o'zi tashkil etgan va boshqarayotgan jarayon orqali ko'zlangan maqsadga erishishi va barkamol shaxsning shakllanishiga imkon yaratayotganiga ishonch hosil qilishi kerak.

Zamonaviy o'qituvchi shaxsiy sifatlardan tashqari g'oyaviy siyosiy, ma'naviy-axloqiy yetuk, ijtimoiy va ijodiy faol, ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarish, innovatsion va axborot texnologiyalarini qo'llash qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Ta'lim samaradorligini oshirishda o'qitish jarayonining tashkilotchisi va boshqaruvchisi bo'lgan o'qituvchi faoliyati muhim rol o'ynaydi.

O'quvchilarga tabaqalashtirilgan tarzda yondashish didaktik adabiyotlarda differensial yondashuv deb atalgan.

Ta'limni differensiallashtirish o'quvchilarni o'quv jarayoni uchun ahamiyatli xususiyatlariga ko'ra guruhlariga ajratib tashkil etiladigan o'qitish – o'rgatishning ma'lum bir shakli orqali namoyon bo'lib, ta'lim oluvchilarning har xil darajadagi guruhlarida maxsus o'qitish jarayoni tashkil etilishini ta'minlanadi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishda algebra fanidan dars mashg'ulotlarini differensial ta'lim texnologiyasi asosida tashkil etish, ya'ni A- reproduktiv, B- izlanish, C- ijodiy xarakterdagi o'quv topshiriqlari tuzishga xarakat qilingan.

Bitiruv malakaviy ishda algebra fanidan dars mashg'ulotlari topshiriqlarida ikkita yo'nalish nazarda tutiladi: o'quvchilarning muayyan darajadagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashi, bilim egallashdagi mustaqilligini ta'minlashdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonuni// Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori.– T.: «Sharq» nashriyot–matbaa konserni, 1997.
2. O‘zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» //Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori.– T.: «Sharq» nashriyot–matbaa konserni, 1997.
3. Mamlakatimiz taraqqiyotini qonuniy asoslarini mustahkamlash faoliyatimiz mezoni bo‘lishi darkor //Prezident I.A. Karimovning 2006 yil 24 fevral kuni Toshkent shaxrida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining beshinchi yalpi majlisidagi ma'ruzasi. //Xalq so‘zi, 2006 yil, 25 fevral, № 39(3838).
4. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. –T.: O‘zbekiston, 2005.
5. Karimov I.A. O‘zbekiston demokratik taraqqiyotining yangi bosqichida. –T.: O‘zbekiston, 2005.
6. Alimov Sh.A., Xolmuxamedov O.R, Mizaaxmedov M.A. Algebra. Umumiy o‘rta ta’lim maktabining 9-sinfi uchun algebra darslik. “O‘qituvchi”. T.:2010. 240 bet.
7. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar(ta’lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). –T.:Iste’dod, 2008.-180 b.
8. Tolipova J. “O‘qituvchi modeli” Ma’rifat gazetasi №27(8572) soni 8-9 bet.
9. Samarova Sh., To‘raev S. “Media va pedagogik texnologiyalarning o‘ziga xos jihatlari” infoCom.uz jurnali 2013y, 60-61 bet.
10. Azizxojayeva N.N. “Pedagogika va pedagogik mahorat”- T.: TDPI, Nizomiy 2003 yil.
11. Avliyoqulov N. “Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari”- T.:, 2001yil.
12. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. “Pedagogik texnologiya asoslari”- T.: O‘qituvchi 2004 yil.

13. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. “Pedagogik texnologiya nazariya va amaliyot”- T.: Fan, 2005 yil.
14. Axunova G.N., Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O‘quv-uslubiy qo‘llanma. Zamonaviy ta’lim texnologiya seriyasi. – T.: “Iqsodiyot” nashr., 2009. 206 b.
15. Otaqulova D.R. Buzrukova H.A. Informatika fanini o‘qitishda differensila ta’lim texnologiyasining o‘rni. Professor-o‘qituvchilar va talabalarning XXVIII ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. III-qism. Navoiy-2013. 126-127 betlar.
16. Otaqulova D.R. Buzrukova H.A, Shamsiddinova N., Qudratov J., Jumayeva U. Algoritmash va dasturlash tillarini o‘qitishda muammoli ta’lim texnologiyasidan foydalanish. Professor-o‘qituvchilar va talabalarning XXIX ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. II-qism. Navoiy-2014. 74-75 betlar.
17. Otaqulova D.R. Buzrukova H.A. Informatika fanini o‘qitishda differensila ta’lim texnologiyasi. Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limida aniq va tabiiy fanlarning o‘zaro aloqadorligi va uzviyligi masalalari. Pespública ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Qarshi-2014. 101-102 betlar.

Internet- sayt manzillari:

- http: // www.infocom.uz. - O‘z.ASI oylik axborotlashgan-analik jurnali.
- http: // www.edu.uz.- O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta ta’lim vazirligi portali.
- http: // www.pedagogika.uz.- pedagogik ta’lim muassasalari portali
- http: // www.ziyonet.uz.- Axborot ta’lim tarmog‘i.
- http: // www.ref.uz.- referatlar, kurs ishlar banki